

Talipov Nigmatjon Nozimovich

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

“Tasviriy san’at” kafedrası dotsenti

AMALIY BEZAK SAN’ATIDA NAQSH ELEMENTLARI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

Annotatsiya: Ushbu maqolada amaliy bezak san’at darslarida naqqoshlik, ganch va yog‘och o‘ymakorligi uchun tuzilgan naqsh kompozitsiyalaridagi elementlarning chizilishi hamda ular orqali nafis san’at asarlarini yaratish to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: naqqoshlik, kompozitsiya, komponovka, ritm, stilizatsiya, simmetriya, assimetriya, islmiy, girih, modohil, ruta, raftor, mehrob, turunj, munabbat, madohil.

ОБЩЕЕ ПОНИМАНИЕ ЭЛЕМЕНТОВ УЗОРА В ПРИКЛАДНОМ ДЕКОРАТИВНОМ ИСКУССТВЕ

Резюме: В данной статье рассматривается использование орнаментальных произведений искусства на практических уроках декоративного искусства, использование орнаментальной резьбы в контексте орнаментальной резьбы и создание изящных произведений искусства с их помощью.

Ключевые слова: роспись, композиция, компоновка, ритм, стилизация, симметрия, ассиметрия, ислими, гирих, модохил, рута, рафтор, мехраб, турунж, мунаббат, мадохил.

GENERAL UNDERSTANDING OF PATTERN ELEMENTS IN APPLIED DECORATIVE ART

Annotation: This article discusses the use of ornamental works of art in practical lessons of decorative arts, the use of ornamental carving in the context of ornamental carving and the creation of fine works of art with their help.

Keywords: painting, composition, composition, rhythm, stylization, symmetry, asymmetry, islmi, girih, modohil, ruta, raftor, mehrab, turunj, munabbat, madohil.

O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati turlari ichida naqqoshlik san’ati uchun tuzilgan naqsh kompozitsiyalari o‘zining ramziy ma’nolari, tabiiy shakl va ranglar uyg‘unligi, go‘zalligi bilan o‘zgacha joziba va ko‘rk bag‘ishlab turadi. Naqsh kompozitsiyalari uy-ro‘zg‘or va sport buyumlari, musiqa asboblari, turar-joy, ma’muriy va maishiy binolar, shuningdek, boshqa turdagi jihozlarga ishlanshidan qat’iy nazar, o‘ziga xos uslub va mazmunga ega bo‘ladi.

O‘zbek xalq amaliy bezak san’atining barcha turlari kabi naqqoshlik, ganch va yog‘och o‘ymakorligi uchun tuzilgan naqsh kompozitsiyalaridagi elementlarning chizilishi bir biriga o‘xshash ko‘rinsa-da, bajarilish texnologiyasi va pardoqlash usullari turlicha amalga oshiriladi. Masalan: ganch o‘ymakorlik va yog‘och o‘ymakorligida naqshlar o‘yib, qirib, yo‘nib, naqqoshlikda bo‘yab, chizib, kashtachilikda chok yordamida, misgarlikda zarb berib, zardo‘zlikda qadab va shunga o‘xshash usullar yordamida pardoqlanadi.

Naqshlar islimiy (o‘simliksimon, yuguruvchi), girih (geometrik, handasiy), gulli girih (aralash) naqshlardan iborat bo‘lishini, ba’zi adabiyotlarda esa o‘simliksimon, geometrik va murakkab kabi atamalar bilan nomlanishi ko‘pchilikka ma’lum. Ushbu naqsh turlariga batafsilroq to‘xtalib o‘tamiz.

1) O‘simliksimon (islmiy, yuguruvchi) naqshlar ko‘p hollarda gul, novda, gajak, marg‘ula, kurtak, barg, g‘uncha kabi elementlarning o‘zaro ma’lum tartibda bog‘lanishidan hosil bo‘ladi. Islmiy naqshlar yakka (bir) ba’zan esa qo‘sh (ikki) bandli novda ko‘rinishlarida bo‘ladi. Ularga misol qilib: ruta hoshiya, raftor, namoyon, mehrob, turunj, munabbat va hokazo naqsh namunalarini aytib o‘tishimiz mumkin.

“O‘simliksimon naqshlari esa tabiatdagi barg, band, daraxt, buta, g‘uncha va boshqa narsalarni naqqosh tomonidan stillashtirib olingan shaklini ma’lum qonuniyatlar asosida takrorlanishidan hosil qilingan. Islmiy — o‘simliksimon naqshi amaliy san’atning deyarli barcha turlarida juda keng tarqalgan.

Islmiy klassik naqsh turi bo‘lib, barg, gul, kurtak, tanob va boshqalardan tashkil topgan bir-biriga ulanib takrorlanishdan hosil bo‘ladigan naqsh. Islmiyning turlari juda ko‘p, usta kompozitsiyasi qaysi shakl bilan to‘ldirilgan bo‘lsa, shu shaklning nomini qo‘shib aytiladi. Chunonchi, islmi mehrob, islmi bodom, islmi bulbul va boshqalar.”¹

2) Girih (geometrik, handasiy) — forscha tugun, chigal, muammo degan ma’nolarni anglatib, bog‘lam, tug‘ilgan joy, me’morchilik va o‘zbek xalq amaliy bezak san’atida keng tarqalgan murakkab naqsh turiga kiradi. Ushbu naqsh turi muayyan taqsimlarga ega bo‘ladi va har bir taqsimning o‘z tuzilishi, ko‘rinishi, xarakteri hamda xususiyati mavjud.

Girih O‘rta Osiyoda va Yaqin Sharqda keng tarqalgan naqsh turlaridan biri hisoblanadi, XII-XVI-asrlarda O‘rta Osiyoda juda keng rivojlangan va taraqqiy etgan. Pokiston, Turkiya, Ispaniya, Xitoy va Yaponiya kabi mamlakatlarda keng yoyilgan va ommalashgan. Dunyoda girihni eng ko‘p ravnaq topgan joyi bu — O‘rta Osiyodir.

O‘rta Osiyoda girih naqshlarining bir qator turlari shakllangan va takomillashib borgan. Girih naqshlarini me’moriy minoralardan tortib kitobat san’atigacha kirib borganligini va bezatilganligini ko‘rishimiz mumkin. Albatta, biz tarixga nazar tashlar ekanmiz, o‘sha zamon uchun girihni chizmachilik asboblari, matematik formulalar asosida ishlanishi bu katta ilmiy kashfiyot edi. Bu girihni ishlagan ustalar matematika fanini egallagan kishilar bo‘lganlar.

Arxitektura yodgorliklaridagi geometrik naqshlar shunday aniqlikda ishlanganki, kishini lol qoldiradi. Olimlarimiz ana shu girih ishlash sirlarini topish maqsadida ko‘p izlanishlar qildilar. Lekin bu jumboqlardan to‘la ma’lumotlar ololmadilar. Chunki, o‘sha vaqtdagi ustalar bu geometrik naqshni qurishni sir deb bilib qog‘ozda yoki biror bir manbada tushuntirib qoldirmaganlar. Shuning uchun ham otadan bolaga o‘tib rivojlanish an’analari unutib yuborilgan. Ana shu sabablarga ko‘ra hozirgi zamonamizda ko‘pgina ustalarimiz girihning yechimini topishga qiynaladilar.

Sharqning mashhur olimlaridan Abdulvafo al Buzjoni (940-998) o‘zining kitoblarida 20 ga yaqin geometrik naqshlar yechimi to‘g‘risida yozib qoldirgan. Bularda girihni ba’zi oson

¹ Muratov X. X., Jabbarov R. R. Amaliy va badiiy bezak san’ati. -T.: IJOD-PRINT, 2020, -62-63

yo'llarini tushuntirib o'tgan. Masalan, uning kitoblaridan birida qurilish va geometrik naqsh yechimi to'g'risida yozilgan. Bu kitob hozir Parijdagi muzeylardan birida saqlanmoqda. Abdulvafo al Buzjoni o'zining asarlarida girihni tayyorlash usullarini ko'rsatib o'tsada, bizga girih yechimi to'g'risidagi ma'lumotlar berilmagan².

U o'zining kitobida kvadratni uchga, beshga bo'lishning eng sodda va oson yo'llarini keltiradiki, bu o'sha davr uchun katta ilmiy va amaliy ahamiyatga molik edi. Murakkabligidanmi yoki yasash qonun-qoidalarining asta-sekin unutib ketganligidanmi, xullas biz uchun noma'lum.

Geometrik — girih naqsh kompozitsiyalarini tuzuvchi naqqosh-ustalarni odatda girihkor, ya'ni "katta usta" deb atashgan. Handasiy naqshlarni gumbaz yoki mehrob, shuningdek, turli shakllarda qo'llash, ulardan amalda foydalanish ancha murakkab ish sanaladi. Bezatiladigan me'moriy obida qismiga yangi naqsh kompozitsiyalarini naqqosh-ustalar chizib berganlar. Ular xalq amaliy san'ati turlari uchun chiziluvchi naqshlarning kompozitsion tuzilishi, chizilishi, bo'yalishi, o'yish, tikish usullari va pardozi berish qonun-qoidalarini yaxshi bilganlar va o'sha san'at turiga moslab, tarkibiy qismlari mazmunini o'zaro bog'lab, yaxlitligini ta'minlagan holda kompozitsiya tuzganlar.

Naqqosh ustalar bir vaqtning o'zida bir necha hunar turlarini ham egallab borganlar. Masalan: toshkentlik pargori ustasi Olimjon Qosimjonov, naqqosh Jalil Hakimovlar yog'och o'ymakorligini, xivalik Abdulla Boltaev naqqoshlik, koshinpazlik, misgarlik kabi hunar turlarida ham erkin ijod qila olganlar. Naqsh kompozitsiyalari mazmunini aslida rang tuslari va naqsh elementlarining ramziy ma'nolarini o'rganib borish zarur.

Ramziy so'zi arabcha "ishora qilmoq" ma'nosini anglatadi. Naqsh ranglari va elementlarining ramziy ma'nosi shundan iboratki, ramziylik olam va odam ruhiyati, tabiat, voqelik, hayot falsafasini jonli chiziqlar, ranglar orqali tasvirlashdir. Naqqoshlik, ganchkorlik va yog'och o'ymakorligi san'atlarida turli shakllar, gul elementlari va rang tuslarining ramziy-falsafiy ma'nolari, ayniqsa, keng ifodalanadi.

Yashil rang — ona tabiat ramzi, ko'k rang — moviy osmon, sariq rang — muqaddaslik, qora rang — matonat, oq rang — tozalik, baxt va omad ramzi, barg — bahorgi uyg'onish, atirgul — go'zallik ramzi, olma — muhabbat ramzi, anor — ezgulik, to'kin sochinlik. Ma'lumki, har bir naqsh namunasi o'ziga xos naqsh elementlariga asos qilinib, tabiatda uchrovchi o'simlik dunyosi, hayvonot olami va turli geometrik shakllarning eng sodda ko'rinishlaridagi "stillashtirilgan" holatlari olinadi. Bunda tanlangan shakl ko'rinishi naqsh kompozitsiyasi tarkibiga qo'shishi mumkin bo'lgan bezak shakliga keltiriladi.

Naqshda elementlarning o'zaro birikib borishi, mutanosib bog'lanishlari naqshning butun bir yaxlitligini tashkil etadi. Naqsh chizishni o'rganishda dastlab quyidagi shakllar chizib o'rganiladi.

Barglar, gullar, novdalar, bog'lam va sirtmoq, tanob, marg'ula va kurtak, modohil, gajak va jingalak, bofta va shukufta. Naqsh chizishda ko'proq barg tasvirlaridan foydalaniladi. Barg islamiy naqsh elementlari sirasiga kirganligi sababli, nozik, nafis, egiluvchan, silliq ko'rinishlarda tasvirlanadi. Naqqoshlar tol, anor, xurmo, bodom, sambit, atirgul, chinor, uzum va shu kabilarning barglarini stilizatsiyalashtirib, naqsh kompozitsiyasini tuzishda kadimdan samarali foydalanib kelganlar.

²Булатов С.С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. -Т.: Меҳнат, 1991, 164-6.

Bofta islimiy va murakkab naqshlar elementi. Naqshdagi patnis, tanob, mehrob, savat ko‘rinishidagi ramkalarni yurak shakldagi elementlari bilan bog‘laydi. Bofta naqsh elementlari bog‘lovchi elementlar tarkibiga kiradi. Bofta islimiy rufta va girih hoshiya naqshlarining o‘ziga xos elementlaridan biridir.

Shukufta — islimiy naqsh elementi, qisqacha shkift deb ham ataladi. Shukufta asosiy shakl yasovchi elementlarni kurtak — gajak ko‘rinishlarida o‘zaro bog‘laydi.

Gullar — islimiy naqsh elementi bo‘lib, naqshlarga targ‘il pardozi berilganidan so‘ng yanada ko‘rkam va husn bag‘ishlaydi. Gul elementlari asosan naqsh shakllarining markaziy qismlariga joylashtiriladi. Gullarning ham behisob turlari mavjud va ular ham o‘ziga xos nomlar bilan ataladi. Gul turlariga oddiy va murakkab ko‘rinishdagi oygul, lola, paxtagul, chinnigul, pistagul, kuvachagul, karnaygul, safargul, nargizgul, tirnoq gul va boshqa gul turlari kiradi.

Novda — o‘simliksimon naqsh elementi sirasiga kiradi. Gul barg, g‘uncha, shobarg va boshqa elementlarni o‘ziga bog‘lab biriktirib to‘ldiradi. Novda naqsh kompozitsiyalaridan faqatgina to‘ldiruvchi vazifasini bajaribgina qolmay, balki nozik va ravon yo‘nalishlari bilan alohida shakllarni yasaydi. Tabiatda barcha daraxt va o‘simliklar pastdan tepaga o‘sishlari sababli, novda elementlari ham iloji boricha bir tomonlama harakat ettiriladi.

Bog‘lam va sirtmoqlar — islimiy naqsh elementlaridir. Novda va ramka shakllariga xos bog‘lovchi oddiy arqon, kurtak va sirtmoq bog‘lam turlarini eslatadi.

Tanob — naqsh namunalardagi asosiy shakl yo‘llarini yasaydi. Bunday shakl nomlari mehrob, modohil, bodom, qalampir, gardish va shu kabilar bilan ataladi. Tanob, bofta, shukufta, bog‘lam elementlari bilan bog‘lanadi.

Marg‘ula — ayrim novda va tanob shakllarining tugallanishini bildiruvchi qo‘sh chiziqli gajak ko‘rinishida bo‘ladi. Marg‘ula naqsh kompozitsiyalarida kurtak elementlari bilan birin-ketin gohida o‘rindosh sifatida uchraydi.

Kurtak — asosan bodom, qalampir, tirnoq ko‘rinishlariga ega. Marg‘ula va kurtak elementlari novda, tanob, yasovchi ko‘rinishlarini boyitadi.

Modohil — islimiy naqsh elementi, lola, tumor, uchbarg ko‘rinishlarini eslatuvchi shakllar misolida uchraydi. Modohil mehrob namoyon naqshlarining yuqori qismlariga xos elementdir.

Gajak va jingalak — islimiy naqsh elementi. Tabiatda uchraydigan uzun, karnaygul, pechako‘t novdalarini stilizatsiyalashtirilgan holdagi ko‘rinishidir. Gajak va jingalak elementlari namoyon, guldasta va islimiy naqsh birikmalarida uchraydi.

3) Gulli girih (aralash) — murakkab naqshlar sirasiga kiruvchi ushbu naqsh turi o‘simliksimon va geometrik naqsh turlarining o‘zaro birikib, bir butun, yaxlit ko‘rinishni ifodalovchi naqsh turi.

4) Madohil — (arabcha — oston, kirish, eshik) chap u rost takrorlanuvchi islami naqsh turi, u kompozitsiyada chiqish nuqtasi, ya‘ni manbai, ildizi, asosi yoki o‘zagi bo‘lib hisoblanadi. Madohili ko‘rinishi jihatidan xilma-xil bo‘lib, g‘uncha, lola, gul, uch barg va boshqa shakllardan iborat.

5) Turunj — arabcha “limon”, ruscha “medalon” degan ma‘nolaridan olingan bo‘lib, ushbu naqshlarda kompozitsiyaning markaziga chiziladigan naqsh turi hisoblanadi. O‘rta Osiyoda o‘ziga

xos ko‘rinishga va mazmunga ega bir necha turlari qadimdan ishlatilib, me‘moriy obidalarda, uning eksterer va intererlarni badiiy bezashda keng qo‘llanilib kelingan.

Turunj naqshning ko‘rinishi, limon shaklida bo‘lganligi uchun bu naqsh turi shunday deb yuritiladi. Turunj naqshlarida asosiy shaklni tashkil etuvchi bandlar hech qanday naqsh elementlariga bog‘lanmay yoki ulanmay muallaq turadigan kompozitsiya ko‘rinishini tashkil etib, uning tuzilishi asrlar davomida shakllandi va rivojlandi va boyib bordi. Uning hozirda doira, 5-10 raxli yulduz, oval, romb, ellips ko‘rinishdagi turlari mavjud. Turunj nusxasi 4, 8 yoki 16 bo‘lakka bo‘linishi mumkin.

Naqqosh-ustalar ko‘pincha to‘rtburchak shaklida tuzilgan kompozitsiya chetiga oddiy naqsh, ya‘ni ruta ishlab o‘rtasiga turunj usulida naqsh ishlaganlar. Ba‘zida turunj naqshi devor o‘rtasiga, shift markaziga, kashta, gilam markazlariga tasvirlangan. Naqqosh-usta turunj axtasini tayyorlashda jarayonida kalka qog‘ozini 4, 8 yoki 16 ga buklab bir bo‘lagiga kompozitsiya tuzadi. Tuzilgan naqsh chiziqlarini igna yordamida teshib, so‘ngra qog‘oz yoyilsa kompozitsiyaning to‘liq nusxasi hosil bo‘ladi. Tayyorlangan turunj naqsh kompozitsiyasining hosil bo‘lgan nusxasini kerakli yuzaga tushuriladi, ma‘lum kolorit asosida bo‘yaladi va pardoatlanadi.

Darhaqiqat, xalq hunarmandchiligi, amaliy bezak san‘ati o‘zining qadimiy va jozibadorligi bilan kishilarni qalbidan chuqur joy olib kelgan. Ayniqsa, naqqoshlik san‘ati an‘analarga boy. Xalq ustalarining ish uslublari ham rang-barang va serqirraligi bilan ajralib turali. Naqqosh o‘z ishida ranglarning tabiiy jilosidan, material fakturasidan mohirlik bilan foydalanib yorqin ifodalilikka erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2016, -20 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi “O‘qituvchi va murabbiylar — yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir” mavzusidagi ma‘ruzasi. -T.: //Ma‘rifat, 2020-yil, 30-sentyabr
3. R.R. Jabbarov. Patterns in applied art of the uzbek folk // European Journal of Arts, 2023, №1. – C.11–14. DOI: <https://doi.org/10.29013/EJA-23-1-11-14>
4. Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09>
5. Jabbarov Rustam Ravshanovich. (2024). TALABALARNI “AMALIY BEZAK SAN’ATI” FANINI DASTURIY MAHSULOTLAR ORQALI O‘QITISHNING DIDAKTIK VA METODIK TA’MINOTI: *IQRO INDEXING*, 9(1), 195-201. <https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/1744>
6. Talipov, N., & Talipov, N. (2021). CREATIVE TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ACTIVITY THROUGH ART EDUCATION. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*.
7. Akhmedov Mukhomod-Umar Bakhridinovich. (2022). THE IMPORTANCE OF FOLK APPLIED ART IN THE FORMATION OF YOUTH CREATIVE ACTIVITY. *CURRENT*

RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(02), 142–156.
<https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-02-23>

8. Jabbarov, R. (2019). Formation of Fine Art Skills by Teaching Students the Basics of Composition in Miniature Lessons. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 17(1), 285-288. doi:<http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v17.1.1424>

9. Nazirbekova, S., Talipov, N., & Jabbarov, R. (2019). Described the Educational, Scientific, and Educational Institutions of the Miniature. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 15(2), 364-367. doi:<http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v15.2.1192>

10. Talipov N.N. Naqsh elementlarini loyihalash. T.: NIF MSH, 2024, 251 b.

11. Xolmatov B.Q. Kompozitsiya. -T.: Iqtisod-Moliya, 2007, -9 b.